



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-avgust

VII-11-88-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

O‘z LiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari hamda byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Farg‘ona tumani bo‘limi faoliyatiga oid nomativ-huquqiy xujjatlar bo‘yicha 2025-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

Bugungi kunda tumanimizda joriy yilning 1 iyul holatiga pensiya va kompensatsiya oluvchi fuqarolar **29 646 nafarni** tashkil etadi.

Jumladan **26 451 nafar yoshga doir pensiya** oluvchi fuqarolar, **1 980 nafar nogironlik pensiya** oluvchi fuqarolar hamda **1 215 nafar boquvchisini yo‘qotganlik** pensiyasini oluvchi fuqarolarimizni tashkil etadi.

Ushbu fuqarolarimizning **24 341 nafariga** bank plastik kartalari orqali, **5 305 nafar** fuqarolarimizga naqd ko‘rinishida to‘lovlar amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda Ushbu peniya va kompensatsiya oluvchi fuqarolarimizga bir oylik o‘rtacha to‘lov miqdori **40 mlrd 799 mln** so‘mni tashkil etmoqda.

Ushbu mablag‘lar fuqarolarning Bank plastik kartalariga har oyning **1-5 sanasiga** qadar to‘lab berilayotgan bo‘lsa, to‘lovlarni naqd shakilda oluchi fuqarolarimizga esa har oyning **4-sanasidan 27-sanasiga** qadar Xalq bankining Sayyor kassalari tomonidan naqd pul ko‘rinishida fuqarolarning yashash manzillariga yetkazib berilmoqda.

Ijtimoiy himoya sohasida mamlakatimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo inson qadrini ulug‘lash, manfaatlarini kafolatlashga xizmat qilmoqda. Bunda, ayniqsa, pensiya tizimi takomillashtirilib, raqamlashtirilayotganligi, pensiyalar miqdorining muntazam oshirib borilayotganligi e‘tiborga molik. Fuqarolarga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini soddalashtirish va raqamlashtirish yo‘lida katta qadamlar qo‘yilmoqda.

Xususan, o‘tgan 2023 yilning 31-oktabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** gi **353-sonli** Qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan pensiya qonunchiligiga oid bir qator o‘zgarishlar kiritildi.

Ana shunday o'zgarishlardan biri sifatida joriy yilning 1 mart sanasidan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni **“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”**gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida belgilangan **(ya'ni ayollar 55-yosh, erkaklar 60-yosh)** ga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda **“proaktiv”** shaklda tayinlash tartibi joriy etildi. Bunda, yoshga doir pensiyalar Pensiya jamg'armasining axborot tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi asosida olinadigan fuqaroning ish staji, ish haqi hamda boshqa ma'lumotlariga asosan davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartib va me'yorlarga muvofiq hisoblanib, to'lovlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mazkur qonunchilik amaliyotga tadbiiq etilishi munosabati bilan Farg'ona tumani bo'yicha joriy yilning **mart-iyun** oylari davomida belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan **589 nafar** fuqarolarning arizalari proaktiv shakilda kelib tushgan. Ushbu arizalarning **385 nafar** ya'ni **(65 foiz)** fuqarolarga pensiya tayinlanib, ushbu fuqarolarning ortiqcha ovvoragarchiliklari ya'ni fuqarolarning tuman Pensiya jamg'armasiga hamda Davlat xizmatlari markazlariga borishlarining oldi olindi. Shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq pensiya miqdoriga ta'sir etuvchi qo'shimcha xujjatlarni istalgan vaqtda taqdim etish huquqi berilganligini qayd etish joiz.

Shu bilan birgalikdan hurmatli Prezidentimizning joriy yilning 27 may sanasidagi 194 sonli **“Nogironlik pensiyalari va kompensatsiyalarini tayinlashda proaktiv xizmatlarni joriy etish to'g'risida”**gi Qaroriga asosan Nogironlik pensiyalarini va kompensatsiyalarni tayinlash tartibi ham 1 iyul sanasidan boshlab proaktiv shakilga o'tkazildi. Ya'ni fuqarolarga Tibbiy ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlik gurhi belgilangandan so'ng tizimda ariza shakillanadi va hech qanday murojaatsiz nogironlik pensiyasi tayinlanadi.

Shuningdek Ishlovchi **1-2 guruh** nogironligi bo'lgan pensiya oluvchi fuqarolarimizning pensiyalari, nogironlik belgilangandan keyingi ishlagan mehnat faoliyati har ikki yilda kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lganida, ushbu fuqarolarimizning pensiyalari ham proaktiv shaklda qayta hisoblab berish tartibi joriy etildi.

Ana shunda o'zgarishlardan biri sifatida pensiya va kompensatsiya oluvchi fuqarolarimizga qulaylik yaratish maqsadida, Prezidentimizning joriy yil 26 iyun sanasida 105-sonli farmonlari qabul qilindi.

Ushbu farmonga asosan joriy yilning iyul-oktabr oylari davomida hokim yordamchilari tomonidan mahalla yettiligi bilan birgalikda fuqarolarning mehnat dafatarchalaridagi ma'lumotlarni tuman (shakar)lardagi Kambagallikni qisqartirish va bandlik bo'limlari tomonidan raqamlashtirish ishlari yuzasidan targ'ibot ishlarini amalga oshirish belgilab qo'yildi.

Shuningdek ushbu farmonga asosan

- 2025-yil 1-oktabrga qadar Majburiy ijro byurosi tomonidan majburiy ijro jarayonida undiruvni pensiya to'lovlariga qaratishdan avval dastlab fuqarolarni xabardor qilish tizimini joriy etildi;
- 2025-yil 1-noyabrga qadar Mudofaa vazirligi tomonidan mudofaa ishlari organlarida ro'yxatda turgan va pensiya tayinlanayotgan fuqarolarning harbiy xizmatni o'tagan davri

to'g'risidagi ma'lumotlarni **"Raqamli hukumat"** tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali Pensiya jamg'armasi axborot tizimiga taqdim etish bo'yicha integratsiya qilish belgilab o'tildi;

- 2026-yil 1-avgustga qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan:
- fuqarolarning oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish davri to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq raqamlashtirish;
- davlat xizmatlari markazlari orqali fuqarolarning oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish davri to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlikning elektron bazasiga yuborish imkoniyatini belgilab qo'yildi.

"O'z LiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari hamda budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Farg'ona tumani bo'limi faoliyatiga oid nomativ-huquqiy xujjatlar bo'yicha 2025-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi tuman bo'lim boshlig'i O.Tuxlievning hisobotini tinglab va muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'z LiDeP partiya guruhi ish rejasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari hamda budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Farg'ona tumani bo'limi faoliyatiga oid nomativ-huquqiy xujjatlar bo'yicha 2025-yil 6 oy davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Farg'ona tuman bo'limi boshlig'i O.Tuxlievning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi boshlig'i (A.Xoliqov)ga:

- pensiya va nafaqa to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, moliyalashtirish ishlarini o'z vaqtida amalga oshirilishini qat'iy nazoratga olishni ta'minlash;
- har oylik pensiya va nafaqalar to'lovi uchun zarur bo'lgan talabnomani o'zvaqtida ta'minlash, pensionerlarning ish joylari orqali yetkazib berishni ta'minlash;
- mahallalarda istiqomat qilayotgan fuqarolarga pensiya va nafaqalarni yetkazishda uchrayotgan muammolarni tahlil qilish va manfaatdor idoralarni jalb etgan holda muhokama etish;
- pensiya va nafaqa to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirilishini rivojlantirish dasturlari, ijro jarayoniga to'sqinlik qilayotgan sabablarni chuqur tahlil qilish va ustuvor vazifalarning bajarilishini ta'minlash;
- pensiya va nafaqalar muddatida tayinlanishi hamda to'lovga chiqarilishi yuzasidan har bir bo'limda nazorat o'rnatish, kamchilik va xatoga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan tushuntirish ishlarini olib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi boshlig'i (Tuxliev), AT "Xalq banki" tuman filiali (Yuldashev)ga:

- pensiya va nafaqa to'lovlarni manzilli yetkazilishi ustidan AT "Xalq banki" rahbarlari va xodimlarining mas'uliyatini oshirish;

- mahalla fuqarolar yig'inlari hududidagi o'zi harakatlana olmaydigan, 80 yosh vaundan katta yoshdagi keksalar, 1 va 2-guruh nogironlarni, yotib qolgan bemorlar hamda kam ta'minlangan fuqarolarga to'lov oyining birinchi yarmida pensiya va nafaqalarni yetkazib berilishi ustidan doimiy nazoratni o'rnatish vazifalari yuklatilsin.

- pensiya va nafaqa pullari to'langan yoki to'lanmaganligi haqidagi ma'lumotlar AT "Xalq banki" filiallari tomonidan kompyuter dasturiga har kuni to'liq va sifatli kiritib borilishi ustidan nazorat o'rnatish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (Yo'ldashev), tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Abduraximov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH